

ABDULQAYUM YO‘LDOSHEVNING ASARLARIDA EVFEMIZM VA DISFEMIZMLARNING QO‘LLANISHI

Musayeva Shahnoza Jalol qizi

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Yoqubov Ixtiyor Hamdamovich*

Annotatsiya: O‘zbek nasrining yetuk namoyondalaridan biri kitoblari kitobxonlar qo‘lidan tushmay kelayot Abduqayum Yo‘ldoshev bugungi kunga qadar ko‘plab asarlari bilan keng jamoatchilikka tanishdir. Yozuvchi asarlarini o‘qiganimizda jonli so‘zlashuv xalq tiliga yaqin yozilganligini, shevalardan oziqlanganligi, asarlarida qo‘llanilgan jumalarning lingvistik xususiyatlarining jozibadirligi yuksak ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu maqolada yozuvchi asarlarida qo‘llanilgan turli evfemizmlar va disfemizmlarning leksik ma‘nolari hamda ular orqali ifodalangan uslubiy ma‘nolarni lingvistik jihatdan tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: Abduqayum Yo‘ldoshev, evfemizm, so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari, leksik ma‘no.

O‘zbek milliy tilimizda kishilarning ko‘ngliga tegmaslik uchun qo‘llaniladigan nozik yumshoq madaniyatli ifodalar hamda lingvistik "umuman ochiq aytilishi noo‘rin, noqulay madaniyatsizlik, ma‘naviyatsizlik, odobsizlik, axloqsizlik hisoblangan so‘z ibora (tabu, disfemizm, kokofemizm, varvarizm, vulgarizm)larning xotirada salbiy ta‘sirini yumshatish, susaytirish, kamaytirish, yopish, mumkin qadar beozorroq tusga kiritish, tasviriy-evfonik tarzda bayon etish va shu bilan birga nutqiy mukammallikka go‘zallik-til madaniyatiga erishish maqsadida ishlatiladigan vositalar juda ko‘plab uchraydi¹. Shunday tilning, nutqning lingvomadaniy birliklaridan biri bu evfemizm sanaladi. Tilimizdagi nozik madaniyatli so‘zlar qo‘llanishi so‘zlarning leksik manosi o‘zgarishiga olib keladi.

O‘zbek xalqining beqiyos yozuvchisi Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarini kuzatar ekanmiz, unda tilimizning beqiyos jilvasiga guvoh bo‘lamiz. Bugungi kunda adibning bir qator sara qissalari, hikoyalari nashr qilindi. A.Yo‘ldoshevning har bir asari matbuot yuzini ko‘rar ekan, ijodkor o‘z uslubi bilan ko‘plab kitobxonlar yuragidan joy oldi asarlar tilining xalq tiliga yaqin ekanligi, tilning go‘zalliklarini ochib berganligi bilan maqtovga sazovordir. Asarlarida qo‘llanilgan xalqona iboralar so‘z o‘yinlari tilimizda yangi evfemik ma‘noning paydo bo‘lishi uchun zamin bo‘lgan. Biz ularning ba‘zilarini tahlilga tortamiz:

¹ Omonturdiyev.A.J. O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati. Toshkent O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti.2006.134 bet,3-bet

So‘ngminan, ovul-jamoatning oldida uyalaman, kenjatoyim oltiga kirib so‘laqmonday bola bo‘lgan bo‘lsayam qo‘lini haliga dovur halollab ololganim yo‘q. Shu ertaga raisdan qarz so‘rasammi deb turib edim; so‘ngminan, bu yoqda kattasiyam yaqinda maktabni bitirdi, uning boshini ikkita qilib qo‘yish tashvishi bor². Qo‘lini halollab olmoq- evfemizm sifatida qo‘llaniladi. Halollamoq so‘zi o‘zbek tiling izohli lug‘atida quyidagicha keltirilgan:

- 1) Din. halol qilmoq, shariat qonun qoidalarga muvofiq yesa ichsa bo‘ladigan.
- 2) Ko‘chma. Biron narsani oqlaydigan, unga arziydigan munosib ish qilmoq. Yegan tuzingni halolla

Insof ham kerak-da! Nonni halollab yeyish kerak. N.Safarov, Hadicha Ahrorova. Urushda o‘g‘lim sutimni halollabdi. Bolalarimdan roziman. N.Safarov Qahramonning tug‘ilishi³.

Yuqoridagi misolda esa *qo‘lini halollamoq* – sunnat qilmoq ma’nosida kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida bu kabi ko‘plab evfemalarni ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagi jumlada boshini ikkita qilib qo‘ymoq – uylantirmoq manosida kelgan. Keyingi gapga etiborimizni qarataylik:

Bu yoqda qaynog‘amizning to‘yi bo‘ynimizda turibdi, o‘zbekchilik tuzukroq to‘yona olib bormasak uyat bo‘lar⁴.

Bo‘ynida turmoq lug‘aviy jihatdan tana bilan boshning tutashgan joyida turmoq degan ma’noni anglatadi. Bu yerda esa u to‘yona qilmoq xarajatli harakat manosini ifodalab kelmoqda. Hikoyalarda o‘ziga xos bo‘lgan evfemalar ham uchrab turadi. *Olqishlardan shishib ketgan oqsoqol bungayam qanoat hosil qilmay, ko‘pchilik hovlida paytini ko‘zlab turib to‘ladan ikki yashik "tentak suv"ni olib chiqib o‘rtaga qo‘yarkan, soxta bepisandlik ila ilova qilib o‘tib ketdiki, bu zormandaning urug‘i serob, qo‘rqmasdan olaveringlar, magazinda mening nomimga yozilgan yana ikkita yashigi turibdi, birortalaring ko‘ngling bo‘lsa, hozir borib olib kelib qo‘ysalaring ham bo‘ladi, bo‘lmasa so‘ngroq borarsizlar⁵.*

Tentak suv – evfemizm. Tentak so‘zi kishilarga nisbatan ishlatiladigan xususiyat sifatidir. Yuqorida esa u suv so‘ziga qo‘shilib (alkagol) spirtli ichimliklar manosini ifodalab kelganganini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa bir misolga e’tibor qarataylik: *Do‘stning xohlagan-pohlagani bormikan, agar bo‘lmasa, bir ikki ko‘z ostimga olib qo‘ygan joylarim bor, bari tagli tugli odamlar, xudo xohlasa, yil boshida ikki oyoqli moshin olib beraman*

² Yo‘ldoshev Abduqayum. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. Hikoyalar . Toshkent yangi asr avlodi, 2021. 224 bet. 10- bet

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. // A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008..592 bet. 494-bet.

⁴ Yo‘ldoshev Abduqayum. "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari.Hikoyalar.Toshkent yangi asr avlodi.2021.224 bet 10- bet

⁵ Yo‘ldoshev Abduqayum."Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. Hikoyalar. Toshkent. Yangi asr avlodi.2021. 224 bet 15-bet

Bu yerda “*Do‘stning xohlagani*” – sevgani ma’nosida, “*ko‘z ostimga olib qo‘ygan joylarim*” – avvaldan niyat qilib qo‘ygan insonlarim ma’nosida, “*ikki oyoqli moshin*”- kelin ma’nosida kelganini ko‘rishimiz mumkin. Yumshoqroq gapirish o‘zbek xalqining azaliy odatlaridandir. V.A.Maslova “Lingvokulturologik tadqiqot obyektlari madaniyatda ramziy mos yozuvlar majoziy-metaforik ma’noga ega bo‘lgan va inson ongining natijalarink to‘g‘ri umumlashtiradigan vositalar bo‘lishi kerak” deb hisoblaydi. Shunga ko‘ra evfemizmlarni lingvokulturologiyaning birliklari deb atash va hisoblash mumkin. Chunki ularda o‘ziga xos madaniy birliklar ifodalangan bo‘ladi.

Jamiyatimizda axloqiy qarashlar qanchalik yaxshi va to‘g‘ri bo‘lsa, rivojlansa jamiyatning madaniy darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, saviyada bo‘lsa, unda tilda nozik odobli ifodalar yaratilgan evfemizmlar shunchalik namoyon bo‘laveradi. Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalaridan olingan quyidagi parchaga qaraylik: “*Do‘stboy jo‘ra dedim darrov nasihatimuz ohangda,- qorning to‘q usting but bo‘lsa, ovul jamoatning oldida bo‘lsang, ayoling qo‘zilay deb turgan bo‘lsa, yana nima kerak odamga*⁶?”

To‘g‘ridan to‘g‘ri xotining deb aytish o‘rniga ayoling deb aytish ham evfemizm. O‘zbek tilida turmush o‘rtoqqa nisbatan ishlatiladigan evfemizmlar talaygina. Bu yerda yana qo‘zilamoq- so‘zi ham evfemizm sifatida kelgan. Nutqda evfemizmlarni nutq sohibi to‘g‘ridan to‘g‘ri odamlarning o‘limi kasalligi aqliy zaifliklarini nomlamaslikka, tana va gavdaning noo‘xshovliklari, fiziologiyas, bola tug‘ilishi, jins, kabi hodisalarga murojaat qilmaslikka hamda ehtiyotkorlik bilan yondashishga harakat qiladi. Yuqorida ko‘rib o‘tgan gapimizdagi *Qo‘zilamoq* so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha izohlangan:

1. Tug‘moq to‘llamoq. (q.to‘l) (qo‘y haqida).

Qo‘zilagan qo‘ylarni parvarishlash. Qo‘ylar qo‘zilaydigan payt.

2.Donador holga kelmoq; dona-dona qumoq-qumoq bo‘lib turmoq. *Qo‘zilab turgan tuproq. Katta tarelkada qo‘zilab turgan oltinday sarimoyini o‘z oldiga tortdi.*

Oybek. “Oltin vodiyan shabadalar” (Qovun) qars etib yorilib ketdi - eti oppoq *qo‘zilab turibdi, urug‘i bo‘lsa sap-sariq.*

S.Anorboyev. “Hamsuhbatlar”⁷.

Bu gapda esa “*qo‘zilay deb turgan bo‘lsa*” tug‘ish arafasida degan manoni ifodalagan Evfemizmlar insonlarni suhbatdoshini ko‘ngliga ozor bermaslik uchun ham q‘llaniladi. Xalqimiz milliy madaniyatida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yana bir misol:

⁶ Abdulqayum Yo‘ldoshev, "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". "Yangi asr avlodi". 2021.-224 bet 22-bet

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. // A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

“Kutmagandim. Uni sariq kasalligi olib ketishini kutmagandim”⁸.

Tilimizda o‘lim manosini ifodalovchi evfemizmlar talaygina. Biz o‘lmoq o‘ldirmoq so‘zi o‘rniga olib ketmoq so‘zini qo‘llab o‘tgan. Yoki bo‘lmasa keyingi parchaga etibor qaratadigan bo‘lsak, *“Do‘stboy xafaqonlik kasalligiga yo‘liqqanligini, ikki marta yurak og‘rig‘i bilan shifoxonaga tushib chiqanligini bilardim”⁹* Bu gapda esa biz o‘ziga xos evfemizmlarning qo‘llanishini ko‘ramiz. Xafaqonlik so‘zining asosi bo‘lgan hafaqon so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha izohlab o‘tilgan:

1.Mungli, g‘amgin, xafahol.

Unga o‘z o‘ylari chigilini yozib olishga yolg‘izlik, xafaqon qalbiga orom, nafasi bo‘g‘ilayotgan o‘pkasiga havo kerak edi. (H.G‘ulom “Mash‘al”)

Teatrda borganingizda, birorta xafaqon aktyorni uchratib qolsangiz, uning dardi rol ustida bo‘ladi. (Shukur Xolmirzayev. “Og‘ir tosh ko‘chsa”)

2.Dilsiyohlik bilan o‘tadigan.

Xafaqon chalkash kunlarning birida Isfandiyorning yana ikkita katta amoldori qochdi. (Mirmuhsin “Cho‘ri”)

3.Yurakning tez yoki notekis urish holatini aniqlash

Xafaqonni davolash va oldini olish kasallikni keltirib chiqargan sabablarga bog‘liq. (O‘zME)

4. Tib. Qon bosimining ortishi tufayli yuz beradigan kasallik, gipertoniya.

Bazi kishilarning aytishiga qaraganda onam, xafaqon kasalligiga yo‘liqqan emishlar. (M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari.)

Bemorlarning biri xafaqon, boshqasi sil kasalligiga muftalo, kimgadir chipqon chiqibdi. (M.Qoriyev Ibn Sino)

Bemor insonlar oldida ularning ko‘ngliga tegmaslik uchun ham evfemizmlar qo‘llaniladi. Bir so‘z bilan insonni yashatish yoki o‘ldirish mumkin. Shuning uchun ham ko‘pgina hollarda insonlar kasalligi bilan bo‘g‘liq so‘zlar va iboralar yumshatiladi. Abu Ali Ibn Sino tabibning kasalni davolashda uch tayanch quroli so‘z, giyoh, tig‘ orasidan so‘zni birinchi o‘ringa qo‘ygan holda, shifokorning ko‘zi burgutniki kabi o‘tkir, qo‘llari qizning qo‘li kabi nozik, yuragi shernikidek dovyurak va aqli ilon kabi o‘tkir bo‘lishi etirof etilganligi diqqatga sazovordir. Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan gapimizda qo‘llangan xafaqonlik so‘zi ham yurak kasal so‘zini yumshoqroq aytilgan variantidir.

Jamiyatimizdagi axloqiy qarashlar qanchalik yaxshi va to‘g‘ri bo‘lsa, u rivojlansa, jamiyatning madaniy saviyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, unda til odobi yumshoq va sodda ifodalar ko‘payib boraveradi. Evfemizmlar va desfemizmlar bevosita xalqning

⁸ Abdulqayum Yo‘ldoshev, "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". "Yangi asr avlodi". 2021.-224 bet 23-bet

⁹ Abdulqayum Yo‘ldoshev, "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". "Yangi asr avlodi". 2021.-224 bet 23-bet.

urf-odati, madaniy saviyasining darajasini estetik did va etnik me’yorlarning ko‘zgusidir. Bunday ifodalarning ko‘payishini ta’minlash va kelajak avlodlarga yetkazish bizning vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.J.Omomturdyev O‘zbek tilining qisqa evfemik lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, fan nashriyoti, –Toshkent, 2006. 134 bet.

2.A.Yo‘ldoshev, “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari”. Yangi asr avlodi nashriyoti, –Toshkent, 2021. 224 bet

3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati (80 000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi). A.Madvaliyev tahriri ostida. O‘zbekiston nashriyoti, –Toshkent, 2021. V jild

4.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAAAJ&citation_for_view=3bpt6QUAAAAJ:WF5omc3nYNoC

5.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAAAJ&citation_for_view=3bpt6QUAAAAJ:roLk4NBRz8UC